



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No7
MAXSUS SON



BAKALAVR TALABALARINIG MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 64 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil sentyabrda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 28-fevraldagi
333/5-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

METHODS USED IN BUSINESS DECISION-MAKING	10
Ochildiev Bekhruz To'liqin o'g'li, Safarov Alisher	
YASHIRIN IQTISODIYOTNING AMALIY TAHLILI O'ZBEKISTON MIQYOSIDA VA UNING XUFYONA JIHATI	15
Yuldasheva Nargiza Rashidovna, Koshanov Abdimurat Azat uli	
BIZNESDA VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR DAVRIDA KASBIY KOMMUNIKATSIYALAR	20
Gulmurodova Marjona Olimjon qizi, Normamatova Sitora Nozim qizi, Umida Yuldasheva Anasaliyevna	
ИНТЕГРАЦИЯ ТЕХНОЛОГИЙ МОДЕЛИРОВАНИЯ В ОБРАЗОВАНИЕ ПО БУХГАЛТЕРСКОМУ УЧЁТУ: ПОВЫШЕНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ ДЛЯ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ.....	25
Муратова Наргиза Тахировна	
MIGRATSIYA JARAYONLARI VA IQTISODIY TENGSIZLIK O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIR XUSUSIYATLARI.....	30
E.T. Samadova, M.Sh.Raximova	
O'ZBEKISTON KORXONALARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA MENEJMENTNING YANGI YONDASHUVLARI	36
Shoydulova Maftuna Zafar qizi, Meliyeva Nargiza Eshboyevna	
TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR: IMKONIYATLAR VA MUAMMOLAR.....	43
Nosirov Sabohiddin, Abdullayeva Mohiniso, Hafizullayev Javlon, Kasimova Zilola G'ulomiddinovna	
MEHNAT MIGRATSIYASI VA PUL O'TKAZMALARINING IQTISODIYOTGA TA'SIRI	48
Chintemirova Diyora Shuxrat qizi, Akbarova Barno Shuxratovna	
TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TIJORAT BANKLAR VA MIKROMOLIYA TASHKILOTLARINING O'RNI	53
Mirkomilov Nozimjon Oybek o'g'li, Tillayev Xurshid Sulaymon o'g'li	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YASHIL MOLIYALASHTIRISHNI JORIY QILISH ORQALI IQTISODIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	59
Inatullayeva Intizor Jamshid qizi, Uchqun Yunusovich O'roqov	



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YASHIL MOLIYALASHTIRISHNI JORIY QILISH ORQALI IQTISODIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Inatullayeva Intizor Jamshid qizi

Moliya fakulteti, MMT-51/24 guruh, 2-bosqich talabasi

Email: inatullayevaintizor@gmail.com

Ilmiy rahbar:

Uchqun Yunusovich O'roqov

"Moliya va moliyaviy texnologiyalar" kafedrası professori, Phd.

Annotatsiya: Ushbu maqolada yashil moliyalashtirish tushunchasi, uning asosiy tamoyillari va O'zbekiston Respublikasida yashil moliyalashtirishni joriy qilishning iqtisodiy rivojlanishga ta'siri hamda bu yo'nalishdagi tendensiyalar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: yashil moliyalashtirish, ekologik barqarorlik, yashil iqtisodiyot, yashil investitsiya, yashil obligatsiyalar, iqlim o'zgarishi, Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG).

Abstract: This article examines the concept of green finance, its key principles, and the impact of implementing green financing on the economic development of the Republic of Uzbekistan. The study analyzes current trends in this field and their role in ensuring sustainable national economic growth.

Key words: green finance, environmental sustainability, green economy, green investment, green bonds, climate change, Sustainable Development Goals (SDG).


Аннотация: В статье рассматривается понятие «зеленое финансирование», его основные принципы, а также влияние внедрения зеленого финансирования на экономическое развитие Республики Узбекистан. Проанализированы современные тенденции в данной сфере и их роль в обеспечении устойчивого роста национальной экономики.

Ключевые слова: зеленое финансирование, экологическая устойчивость, зеленая экономика, зеленые инвестиции, зеленые облигации, изменение климата, Цели устойчивого развития (SDG).

KIRISH

Yashil moliyalashtirish — bu iqlim o'zgarishining salbiy ta'sirini kamaytirish hamda unga moslashishga qaratilgan chora-tadbirlarni qo'llab-quvvatlash bilan birga, sanoat chiqindilarining atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirish, suv resurslarining ifloslanishining oldini olish va biologik xilma-xillikni saqlab qolishga xizmat qiluvchi loyihalarga yo'naltirilgan investitsiyalar majmuasini ifodalaydi. "Yashil moliya" atamasi ilk bor taniqli iqtisodchi olim Richard Sandor tomonidan 1992-yilda Nyu-Yorkdagi Kolumbiya universitetida ishlab chiqilgan maxsus o'quv dasturida qo'llanilgan [3]. 2002-yilda Stenford universiteti professori Gletchen Deyl tomonidan nashr etilgan "Yangi tabiat iqtisodiyoti" kitobida tabiiy resurslarni muhofaza qilishni moliyalashtirish masalalari ko'rib chiqilgan [4].

Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi va Yevropa investitsiya banki kabi xalqaro moliyaviy institutlar yashil moliyalashtirishni iqtisodiy siyosatning ajralmas qismi sifatida ilgari surmoqda. Rivojlangan hamda rivojlanayotgan mamlakatlar ushbu yo'nalishda turli strategiyalarni amalga oshirmoqda. Shu bilan birga, ayrim mamlakatlarda yashil moliyaviy instrumentlardan foydalanish tajribasi hali yetarli darajada shakllanmagan. Xalqaro energetika agentligi prognozlariga ko'ra, 2050-yilgacha atmosferaga chiqarib yuboriladigan CO₂ emissiyasini ikki baravarga kamaytirish uchun "yashil iqtisodiyot"ga dunyo yalpi ichki mahsulotining 1–2,5 foizi miqdorida qo'shimcha investitsiyalar sarflash zarur (1-rasm).



1-rasm. Yashil moliyalashtirishning ahamiyati

Yashil moliyalashtirish — bu iqtisodiy rivojlanishni ekologik barqarorlik asosida rag'batlantiruvchi moliyaviy instrumentlar yig'indisidir. Ushbu yondashuv Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG), xususan, toza energiya, iqtisodiy o'sish, sanoat va innovatsiya, mas'uliyatli ishlab chiqarish hamda iqlim o'zgarishiga qarshi kurash kabi yo'nalishlarda bevosita ahamiyat kasb etadi. Demak, yashil moliyalashtirish — bu iqtisodiy taraqqiyot va ekologik barqarorlik o'rtasida muvozanatni ta'minlashga xizmat qiluvchi zamonaviy hamda muhim vosita hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiy adabiyotlarda keltirilgan ta'riflarni quyidagicha guruhlash mumkin: birinchi guruhga xos umumiy jihat shundan iboratki, atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bog'liq texnologik jarayonlar, loyihalar va dasturlarni moliyalashtirishning keng qamrovli usullari "yashil moliya" sifatida talqin etiladi. Ikkinchi guruh ta'riflarda esa "yashil moliya" ekologik tarkibiy elementga ega bo'lgan moliyaviy mahsulotlar (dastaklar) va xizmatlar (kreditlar, obligatsiyalar, aksiyalar va boshqalar) sifatida tushuntiriladi [5].

"Yashil iqtisodiyot" sohasida turli tadqiqotlar olib borish bilan shug'ullanuvchi xususiy kompaniyalar "yashil moliyalashtirish" tushunchasining mohiyatini ochib berishga harakat qilgan. Jumladan, Bloomberg New Energy Finance kompaniyasi mutaxassislari "yashil moliya" atamasi "yashil investitsiyalar" bilan bir qatorda qo'llanilishini, ammo amaliyotda "yashil moliyalashtirish" investitsiyalarga nisbatan kengroq tushuncha sifatida ishlatilishini ta'kidlaydi. Bundan kelib chiqadiki, "yashil moliyalashtirish" — bu atrof-muhitga ta'sir etuvchi omillarni har tomonlama tahlil qilgan holda, ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan investitsiya va kreditlash faoliyatining barcha shakllarini qamrab oluvchi moliyaviy mexanizmdir [6].


Oksford tadqiqotchisi Eliyezer Yudkovskiy nuqtayi nazaridan, global tabiiy ofatlarni faqat bir qator chora-tadbirlar yordamida baholash va tartibga solish mumkin [7]. Ushbu kompleksda yetakchi o'rinni "yashil moliya" egallab turibdi. Bu quyidagi tadbirlarni amalga oshirishni ta'minlaydi:

- tabiiy resurslar monitoringini amalga oshirish (tabiiy resurslardagi tarkibiy o'zgarishlarning uzoq muddatli seriyalarini tahlil qilish ishonchlilik va xabardorlik darajasini oshirishga yordam beradi);
- mumkin bo'lgan tabiiy ofatlarni tahlil qilish va baholash, shuningdek, salbiy oqibatlarni samarali bartaraf etishga qaratilgan ilmiy tadqiqot hamda ishlanmalarni amalga oshirish;
- xatarlar keltirib chiqargan zararli oqibatlarni bartaraf etish.



Shuningdek, Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan Jahon banki va Yevropa tiklanish hamda taraqqiyot bankining malakali mutaxassislari jalb etilgan holda O'zbekistonning kam uglerodli rivojlantirish (dekarbonizatsiya) bo'yicha uzoq muddatli strategiya loyihasi ishlab chiqilmoqda.

O'zbekiston delegatsiyasi a'zolari Fransiya taraqqiyot agentligi (AFD) hamda "Expertise France" tomonidan tashkil etilgan "Monitoring, hisobot va tekshiruv (MRV) tizimini joriy etishda Marokash tajribasini o'rganish" o'quv dasturi doirasida mamlakatda iqlim o'zgarishi sohasida AFD bilan hamkorlikda olib borilayotgan ishlar, xususan, davlat moliyasini boshqarish tizimiga "yashil" iqtisodiyot tamoyillarini integratsiyalash, budget xarajatlarini "yashil" markirovkalash, "yashil" davlat xaridlarini joriy etish va "yashil" moliyalashtirish taksonomiyasini ("yashil" mezonlar) ishlab chiqish kabi loyihalar bo'yicha o'zaro tajriba almashishgan (3-rasm) [10].



3-rasm. Yashil moliyalashtirish ahamiyati va samaradorligi [8]

Orol dengizining suv sathi keskin pasayib borayotgani O'zbekiston, mintaq va jahon miqyosidagi ekologik muammo bo'lib, buning natijasida ekologik muhit hamda tabiiy muvozanat buzilmoqda va iqlim salbiy tomonga o'zgarib bormoqda. Orol dengizi va unga yaqin hududlardan qum, tuz hamda changlarning havoga ko'tarilib, atrof-muhitga tarqalishi natijasida Orolbo'yi mintaqasida yashovchi aholiga, o'simlik va hayvonot dunyosiga jiddiy zarar yetayotgani kuzatilmoqda.

Orolbo'yi hududida ekologik tiklanish va landshaft barqarorligini ta'minlash uchun yashil moliyalashtirish mexanizmlaridan foydalanish zarur. Masalan, saksovul kabi cho'l sharoitiga chidamli o'simliklarni ekish orqali shamol eroziyasini kamaytirish, havodagi changni yutish va karbonat angidridni ushlab qolish mumkin. Orolbo'yi hududida ekologik tiklanishni ta'minlash maqsadida yashil moliyalashtirish mexanizmlaridan foydalangan holda saksovul kabi ekologik jihatdan muhim o'simliklarni ekish taklif etiladi. Bu nafaqat ekologik barqarorlikni oshiradi, balki mintaqada yashash sharoitlarini yaxshilaydi va iqlim o'zgarishiga moslashishda muhim rol o'ynaydi.

Yashil investitsiya banklari — bu davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan moliyaviy institutlar bo'lib, ularning asosiy maqsadi xususiy kapitalni jalb qilish orqali ekologik toza va barqaror energiya loyihalariga investitsiyalarni rag'batlantirishdan iborat (1-jadval).

1-jadval. "Yashil" investitsiya banklari [9]

No	"Yashil" investitsiya banki	Manzil	Tashkil etilgan yil
1	California CLEEN Center	Kaliforniya, AQSH	2014-yil
2	Clean Energy Finance Corp. (CEFC)	Avstraliya	2012-yil
3	Connecticut Green bank	Konnektikut, AQSH	2011-yil
4	Green Energy market Securitization (GEMS)	Gavayi, AQSH	2014-yil
5	Green Fund	Yaponiya	2013-yil
6	Malaysia Green Technology Corp. (GMT)	Malayziya	2010-yil
7	Masdar	Saudiya Arabistoni	2006-yil
8	New Jersey Energy Resilient bank (ERB)	Nyu-Jersi, AQSH	2014-yil
9	NY Green bank	Nyu-York, AQSH	2014-yil
10	Rhode Island Infrastructure bank (RIIB)	Rod-Aylend, AQSH	2015-yil
11	Technology Fund	Shveysariya	2014-yil
12	UK Green Investment bank	Buyuk Britaniya	2012-yil



Demak, yashil investitsiya banklari - yashil moliyalashtirish tizimining markaziy ishtirokchilaridan biri hisoblanib, eng yirik "yashil" investitsiya banklari – Clean Energy Finance Corporatio (Avstraliya), Green Investment bank (Buyuk Britaniya), Connecticut Green bank (AQSH) aktivlari – 5-7 milliard dollarni tashkil etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yashil moliyalashtirish iqtisodiy o'sishni ekologik barqarorlik bilan uyg'unlashtirishga xizmat qiluvchi muhim moliyaviy vositadir. U nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilish, balki yangi innovatsion texnologiyalarni joriy qilish va aholi farovonligini oshirish imkonini beradi. O'zbekiston Respublikasi tomonidan qabul qilingan strategik hujjatlar hamda xalqaro hamkorlik doirasida amalga oshirilayotgan tashabbuslar mamlakatda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishga zamin yaratmoqda. Ayniqsa, Orolbo'yi mintaqasida yashil moliyalashtirish mexanizmlaridan foydalanish orqali ekologik tiklanish, iqlim o'zgarishiga moslashish va aholining yashash sharoitlarini yaxshilash mumkin. Yashil moliyalashtirish bo'yicha yanada samarali natijalarga erishish uchun hukumat, xususi sektor va fuqarolik jamiyatining o'zaro hamkorligi muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-436-sonli qarori
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-iyundagi "O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiyotga o'tishda milliy shaffoflik tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-213-sonli Qarori qabul qilindi
3. Richard L.Sandor. "Good Derivatives: A Story of Financial and Environmental Innovation" John Wiley & Sons. February 2012
4. Gretchen Daily, Katherine Ellison The New Economy of Nature: The Quest to Make Conversation Profitable. Island Press, 2002
5. Low Carbon Green Growth Roadmap for Asia and thre Pacific <https://www.unescap.org/resources/low-carbon-green-growth-roadmap-asia-and-pacific>
6. Zadek and Flynn (2013): South-Originating Green Finance: Exploring the Potensial, The Geneva International Finance Dialogues, UNEP FI, SDC, and iisd.
7. Yudkowski E. Xatarlarni baholashga ta'sir qiluvchi xatolar. Global xavflarni baholashga ta'sir qiluvchi kognitiv buzilishlar / Per. Aleksey Turchin // Global falokat xavfi / Ed. Milan Sirkovich. Oksford: Oksford Press, 2008, 56-78 betlar. URL: <https://www.proza.ru/2007/03/08 - 62>.
8. Yashil iqtisodiyot, Darslik Vaxabov A.V, Xajibayev Sh.X, Toshkent-2021
9. Yashil iqtisodiyot, Darslik, Butaboyev M.T, Maxmudov N, Kasimiv A.A, Toshkent-2025, 151-b
10. Lex.uz
11. <https://www.green.imv.uz>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

7-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>